

Allanov Shuhrat Qilichovich

Termiz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Xudoynazarova Dilchehra

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

GEOGRAFIK O'RINNING VILOYAT IQTISODIYOTIGA TA'SIRI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining iqtisodiy-geografik o'rni, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari tahlil qilingan. Viloyatning relyefi, iqlimi, balandlik mintaqalari, suv resurslari, qishloq xo'jaligi va sanoat salohiyati, shuningdek, iqtisodiy rivojlanish darajasi yoritilgan. Tadqiqotda Surxondaryo viloyatining O'zbekiston iqtisodiy tizimidagi o'rni va mintaqaning tarixiy taraqqiyoti ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, Iqtisodiy-geografik o'rin, Tabiiy resurslar, Balandlik mintaqalari, Qishloq xo'jaligi, Sanoat salohiyati, Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, Sug'orish tizimi, Relyef va iqlim sharoiti.

Allanov Shuhrat Qilichovich

Senior Lecturer, Termez State Pedagogical Institute

Khudoynazarova Dilchehra

Student, Termez State Pedagogical Institute

THE IMPACT OF GEOGRAPHIC LOCATION ON THE ECONOMY AND DEVELOPMENT TRENDS OF SURKHANDARYA REGION

Abstract: This article analyzes the economic-geographical position of the Surxondaryo region, along with its natural and socio-economic characteristics. It covers aspects such as relief, climate, elevation zones, water resources, agricultural and industrial potential, and the level of economic development. The research also highlights the historical evolution of the region and its role within Uzbekistan's economic system.

***Keywords:** Surxondaryo region, Economic-geographical position, Natural resources, Elevation zones, Agriculture, Industrial potential, Socio-economic development, Irrigation system, Relief and climatic conditions*

Kirish. Surxondaryo viloyati O‘zbekiston Respublikasining eng janubiy hududi bo‘lib, o‘zining noyob geografik o‘rni, tabiiy resurslari va iqlim sharoiti bilan ajralib turadi. Viloyatning geografik joylashuvi uning iqtisodiy rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, hududning Afg‘oniston bilan chegaradoshligi, xalqaro transport yo‘llariga yaqinligi va tabiiy boyliklarga egaligi iqtisodiy faoliyatning turli yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Geografik o‘rin viloyat iqtisodiyotining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Surxondaryo viloyati tog‘li va tekislik hududlar uyg‘unlashgan hudud bo‘lib, bu esa qishloq xo‘jaligi, sanoat va turizm sohalarining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, iliq iqlim sharoiti yil davomida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, viloyat hududida mavjud tabiiy resurslar, jumladan, foydali qazilmalar va suv resurslari iqtisodiy salohiyatni yanada oshiradi.

Shu bilan birga tadqiqot obyektining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga, uning o‘ziga xos ishlab chiqarish ixtisosiga tubdan ta‘sir ko‘rsatadigan muhim tomonlari ham mavjuddir. Ular quyidagilar:

- viloyat respublikaning eng janubida joylashganligi. Shu sababdan uning yozi boshqa mintaqalarga nisbatan ancha issiq va davomli (iyulning o‘rtacha harorati +280 +320S), qishi esa ancha iliq va qisqa (yanvarning o‘rtacha harorati +10 +40S) bo‘ladi. O‘z navbatida, bu agroiklim resurslariga boy bo‘lgan o‘lkada eng issiqsevar qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish, ularni erta yetishtirish imkoniyatlari bilan ta‘minlaydi . - relyefining o‘ziga xosligi. Surxondaryo relyefining xilma - xilligi bilan alohida ajralib turadi. Uning hududi dengiz yuzasidan balandligi 270 m (janubida) dan 4643 m (shimolidagi Hisor tog‘ tizmasi) gacha bo‘lgan balandliklardan tashkil topgan. Viloyat hududi shimoliy, g‘arbiy va sharqiy tomonlaridan baland tog‘lar bilan o‘ralgan va ulardan kirib keladigan sovuq havo

oqimlarini to'sib qolishi mintaqa ijtimoiy hayotida hamisha katta ijobiy rol o'ynab keladi; - hududining keng darajada vertikal mintaqalanishi. Unda mutloq balandligi 270-600 m bo'lgan tekislik qismi, 600-1000 m bo'lgan maydonlarni egallagan tog' oldi - adirlik qismi va 1000 m dan balandda joylashgan hududlarni o'zida birlashtirgan tog'lik qismlari yaqqol ajralib turadi. Bu balandlik mintaqalari I.Safarovning topo-gipsometrik xaritalar asosida aniqlagan ma'lumotlariga ko'ra, viloyatning umumiy maydoniga nisbatan tekislik qismi hissasiga 36 %, tog' oldi - adirlik qismiga 23 % hamda baland tog'larga 41 % to'g'ri keladi.

Paxta va burdoy etishtirish; chorvachilikda esa qoramol va qo'ychilik), transport (va ayniqsa te'mir yo'l va avtomobil yo'li transporti) salmoqli o'rin tutadi. Surxondaryo viloyati xo'jaligi mintaqaning geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, tarixiy rivojlanish xususiyatlari asosida shakllangan. Umuman olganda, viloyat iqtisodiyoti ko'proq agrar yo'nalishga ega. U respublika yalpi ichki mahsulotining 4,1, sanoat ishlab chiqarishining 1,5, qishloq xo'jalik mahsulotlarining 7,6, chakana savdo xajmining 6,5 va pullik xizmatlarning 4,1 foizini beradi. Xalk iste'mol mollari ishlab chikarishda viloyat ulushi 2,2, kapital kuyilmalarda 3,9, eksport xajmida 1,8 va importda 7,9 %. Eslatib o'tamiz, Surxondaryoning mamlakat aholisidagi ulushi 7,6 foizga teng. Demak, yuqoridagi statistik ma'lumotlardan xulosa kilish mumkinki, bu yerda asosan qishloq xo'jaligi respublika ahamiyatiga ega, kolgan sohalar esa sust rivojlangan. Viloyat iqtisodiyotining ichki tarkibi quyidagicha; sanoat - 7,6 %, qurilish - 8,0 %, qishloq xo'jaligi - 38,3 %, transport va aloqa - 13,1 %, savdo va umumiy ovqatlanish - 10,1 %, soliqlar - 3,2 %, boshqa tarmoqlar - 19,7 % Qizig'i shundaki, 2000 yilda sanoat viloyat yalpi hududiy mahsulotining 18,6 foizini ta'minlagan. Ko'rinib turibdiki, makroiqtisodiyotning ushbu tarmog'i viloyatda yanada zaiflashgan, xo'jalik yunalishi yanada agrarlashib borgan. Kichik tadbirkorlik yoki biznesning yalpi xududiy mahsulot tarkibidagi hissasi tobora oshib bormokda (74,2 %).

Viloyatda sanoat ishlab chiqarishi, mavjud xom ashyo va mineral resurslarga tayangan holda, eng so'nggi yillarda biroz rivojlanish ko'rsatkichlarini namoyon qilmoqda. Shakllanib borayotgan sanoat majmuasi tarkibida yoqilg'i- energetika

majmuasining ulushi 17,2 %, qurilish materiallari sanoatiniki - 7,1 % bo'lsa, yengil sanoat jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining 40,1 foizini, oziq- ovqat sanoati 19,1 foizini ta'minlaydi. Yoqilg'i sanoatida asosan ko'mir (Boysun, Sharg'un), yengil sanoatda ko'proq paxtani qayta ishlash, oziqovqatda omixta yem va un-yorma sanoati yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, og'ir sanoat tarmoqlari, xususan, mashinasozlik va metalni qayta ishlash, kimyo, elektr energetika ancha past ko'rsatkichlarga ega. Ayniqsa, viloyatning elektr energetika va qurilish bazasining zaifligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga, jumladan, "Qishloq" dasturida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun qulay imkoniyat bermaydi. Bu yerda atigi uncha katta bo'lmagan To'palang SES bor, xolos. Sement zavodi esa Sherobod tumanida joylashgan. Sanoat korxonalarining umumiy soni 1536 ta, shundan 24 tasi faoliyat ko'rsatayotgan yirik sanoat korxonalari hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Alohida qayd qilmoq lozimki, Surxondaryo viloyati iqtisodiyoti XX asr boshlarigacha tashqi bozor uchun tovar mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan emas edi. Unda aholi, eng avvalo, o'lkaning respublika markaziy rayonlaridan chekkada joylashganligi sababidan, ichki bozor uchungina turli kundalik ehtiyoj uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqargan: g'alla, mevasabzavot, chorvachilik mahsulotlari, turli ish qurollari, uy - ro'zg'or buyumlari, ayrim mahalliy gazlama turlari va boshqalar. Bunday holatlar mintaqa sifatida Surxondaryo ijtimoiy - iqtisodiy hayotining yaqin o'tmishi ko'rinishlaridir va u bu jihatdan ham O'zbekiston rayonlari orasida yagona bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizning alohida mintaqasi sifatida Surxondaryo viloyati o'zining bir qator iqtisodiy geografik ko'rsatkichlari bilan boshqa viloyatlardan ajralib turadi. Jumladan, u 2023 - yil ma'lumotlariga asosan respublikada egallagan maydoniga ko'ra 6 o'rinda tursa, aholisining soni bo'yicha 8, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ko'ra 10, qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi bo'yicha 7, yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko'ra 10 o'rinlarni egallaydi. Ishlab chiqarish unumdorligi, infratuzilma, tadbirkorlik va investitsiya, moliya, ijtimoiy rivojlanish, tashqi iqtisodiy faoliyat kabi muhim iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar tahliliga ega.

Xulosa.Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo viloyatining iqtisodiy rivojlanishida uning iqtisodiy-geografik o'rnini muhim ahamiyat kasb etadi. Hududning janubiy chegarada joylashganligi, qulay iqlim sharoiti va boy tabiiy resurslarga egaligi viloyat iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyatning relyefi va iqlim sharoiti qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, sug'oriladigan yerlarning mavjudligi va suv resurslaridan oqilona foydalanish dehqonchilik samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, mavjud xomashyo bazasi sanoatni rivojlantirish, ayniqsa, qayta ishlash tarmoqlarini kengaytirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatining geografik joylashuvi uning transport-logistika va tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Chegaraoldi hudud sifatida savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu esa viloyat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kelgusida viloyat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uchun tabiiy resurslardan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Shu orqali Surxondaryo viloyatining iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish va uning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini yanada mustahkamlash mumkin.

ADABIYOTLAR

1.Allanov Q.A., Mustayev Q.R. O'rta Osiyo tog' muzliklari va uni o'rganishning amaliy ahamiyati//O'zbekistonda geografiya fanining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Termiz, 2020. – 36-39 b.

2.Maxmatraimov Ch.E., Allanov Q.A., Choriyev A.Q. Surxondaryo viloyati iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir etuvchi ta'sir etuvchi ayrim muammolar va uni bartaraf etish masalalari//Yangilanayotgan O'zbekistonda geografiya: fan, ta'lim va

innovatsiya. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2021.
– 137-139 b.

3. Alibekov L.A “O’rta Osiyo tabiiy geografiyasi” Samarqand 2006

4. Alibekov L.A “Эколого-географические проблем Централний Азий” Samarqand, 2010.

5. Hasanov I.A, G’ulomov P.N “O’zbekiston tabiiy geografiyasi” Toshkent , 2003. Hasanov I.A , G’ulomov P.N “O’rta Osiyo tabiiy geografiyasi” Toshkent, 2002

6. Hikmatov F.X, Aytboyev D.P “Gidrologiya asoslari” Toshkent, 2003

7. Abdimo‘Minov T.A., & Mahkamova M.D. (2025). Sariosiyo tumani aholisi salohiyati dinamikasi va ulardan mehnat resursi sifatida foydalanish masalalari. Экономика и социум, (4-2 (131)), 7-11.

8. Komilova N.K., & Abdimo‘Minov T.A. (2023). The geographical basis of studying mineral springs. Экономика и социум, (1-2 (104)), 62-65.